

TARIX FALSAFASI VA METODOLOGIYASIDA RATSIONAL VA IRRATSIONAL FAKTLAR TASNIFI YOXUD FALSAFADA AMALIYOT VA NAZARIY DESTRUKSION G‘OYALAR

Ahrorova Madina Raxmatovna, O‘rinov Umidjon Dehqonboy o‘g‘li

Samarqand davlat pedagogika instituti, *madinaaxrorova@samdpi.uz*

Annotatsiya: Tarix fani va Falsafa bir-biriga doimo bog‘liq holda rivojlanib borgan va hozir ham shunday davom etmoqda. Falsafiy ta’limotlar va ideologiyalar vositasida insonyat tarixida yangi davirlar va jamyatlar vujudga kelgan va bu hozir ham davom etmoqda. Lekin bu jarayonlarga o‘z hissani qo‘shgan hali bizni ko‘zimiz ilg‘amagan „Amalyotchi Faylasuflar“ ham borligini va ularning asl maqsad vazifasi nimalardan iborat ekanligini to‘liqroq anglash jahon hamjamiyati va kelajak avlodlar uchun foydali bo‘ladi!

Kalit so‘zlar: Amalyotchi va Nazaryotchi faylasuflar, „Hayolotning haqiqatga aylanishi“, Xalq xizmatchisi

CLASSIFICATION OF RATIONAL AND IRRATIONAL FACTS IN HISTORY PHILOSOPHY AND METHODOLOGY OR PRACTICE AND THEORETICAL DESTRUCTIVE IDEAS IN PHILOSOPHY

Abstract: The science of history and philosophy have always developed in close connection with each other and continue to do so today. Through philosophical doctrines and ideologies, new eras and societies have emerged in human history, and this continues to this day. But it will be beneficial for the world community and future generations to better understand that there are also "Practical Philosophers" who have contributed to these processes, whom our eyes have not yet noticed, and what their true purpose and mission are!

Keywords: Philosophers of Practice and Theory, "The Transformation of imagination into Reality," Public Servant.

КЛАССИФИКАЦИЯ РАЦИОНАЛЬНЫХ И ИРРАЦИОНАЛЬНЫХ ФАКТОВ В ИСТОРИИ, ФИЛОСОФИИ И МЕТОДОЛОГИИ ИЛИ ПРАКТИКА И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ДЕСТРУКТИВНЫЕ ИДЕИ В ФИЛОСОФИИ

Аннотация: История и философия всегда развивались в тесной связи друг с другом и продолжают развиваться сегодня. Благодаря философским доктринам и идеологиям в истории человечества возникли новые эпохи и общества, и это продолжается по сей день. Но будет полезно для мирового сообщества и будущих поколений лучше понять, что есть также "Практические

философы," которые внесли свой вклад в эти процессы, которых наши глаза еще не заметили, и какова их истинная цель и миссия!

Ключевые слова: Философы-практики и теоретики, "Превращение воображения в реальность," Служитель народа.

Falsafa va Faylasuflar deganda ko‘pchilik insonlar hayoliga aqilli iboralar va ming yillar oldin yashab o‘tgan Arestotel, Konfutsiy, Aflotun, kabi faylasuflar keladi. To‘g‘ri bunday o‘ylashni ham xato deb bo‘lmaydi lekin biz go‘yo qarshimizda ulkan „Aysberg“ turibdi-yu biz faqatgina uni suvdan chiqib turgan ozgina qismini koryabmiz holos aslida butun boshli ulkan muz tog‘i, suv qarida yashirib yotmoqda⁴. Falsafa ham huddi shu ayisberg singari hali insonyat anglashga ulgurmagan ulkan sir-asrorlarga boy xazinadir. Kishilik jamyatini rivojlanib hozirgi yuksak darajaga yetishida Falsafaning hissasi kattadir. Agarda yaxshilab o‘ylab ko‘rsak falsafiy ta‘limotlar ham ikki asosiy „Nazariy va Amaliy“ qisimlarga bo‘linishini aglashimiz mumkin. Faylasuflar ham huddi shunday „Amalyotchi va Nazaryotchi“ faylasuflarga bo‘linadi. Bu haqida to‘liqroq tushinchani hosil qilish uchun dastlab har bir qisimni alohida tahlil qilamiz va ularning birgalikda qanday qudratli kuchga aylana olishini misollar yordamida yoritishimiz kerak bo‘ladi.

Nazariy bilimlar- bu hodisalarni faqat amaliy tajriba orqali emas, balki tafakkur, mantiq va ratsional fikirlash orqali anglashga qaratilgan bilim shakli hissoblanadi. Tarix davomida ko‘plab faylasuflar nazariy bilimlarni yaratishda katta xissa qo‘shgan. Biz bu faylasuflarni yashagan davriga qarab 5 ta guruhga ajratib olamiz.

1.Qadimgi davr faylasuflari

Platon (mil.avv.427-347) "G‘oyalar duyosi nazaryasi orqali nazariy bilimlarni ideal shakilda mavjud deb hissoblagan"

Aristotel (mil.avv.384-322) „Emperik kuzatish bilan birga mantiqiy tahlil orqali nazariy bilimlarni shakillantirdi. Uning fikricha barcha bilimlar sabablarni bilishga asoslangan.

2.O‘rta asrlar.

Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) (980-1037) „Falsafiy tafakkur va mantiq orqali nazariy bilimlarni rivojlantirdi, ayniqsa tibbiyot va metafizikani rivolanishiga ulkan hissa qo‘shgan.”

Foma Akvinskiy (1225-1274) „ilohiyot va falsafani birlashtirib, mantiqiy asoslangan asar yaratdi.”

3.Uyg‘onish davri.

Rene Dekart (1596-1650) „Men o‘ylayabman demak mavjudman” (*Cogito, ergo sum*) tamoyili bilan bilish nazaryasiga asoslangan.”

Frensis Bekon (1561-1650) „Emperik metod orqali nazariy bilimlarni amaliy kuzatish bilan bog‘ladi.”

4.Yangi davr.

Immanuil Kant (1724-1626) „Aqliy bilim va tajriba o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, bilimning sintetik apriori shaklini joriy qildi.”

Georg Hegel (1770-1831) „Dealektika orqali bilimlarning uzluksiz rivojlanishini tushuntirdi.”

5.Zamonaviy davr.

Karl Popper (1902-1994) „ilmiy bilimlarning nazariyligini klasifikatsiya (yolgʻonligini koʻrsatish) orqali baholash kerakligini ilgari surdi.

Ludvig Vitgenshtayn (1889-1951) „Til mantiqi orqali nazariy bilimlarning chegarasini tahlil qildi.

Bu tafakkur orqali nazariy bilimlarni kashf qilish, ularni tahlil qilish va oʻzaro bogʻlshda asosiy roʻl oʻynagan va biz ularni „*Nazaryotchi faylasuflar*” deb atasak adashmagan boʻlamiz.

Amalyotchi faylasuflar: Falsafiy gʻoyalarni hayotda qoʻllash bilan shugʻullanadi va ular oʻz qarshlarini ijtimoiy ,siyosiy yoki axloqiy masalalarga tadbiq etib ,amaliy yechimlar topishga harakat qiladi. Ular asosan oʻz falsafiy qarashlarini siyosatda ,jamiyatda yoki boshqa sohalarga tadbiq qilib muayyan vaziyatlarga va real muammolarga javob topishga intiladi. Masalan: Adolat, qonunlar, ijtimoiy tenglik va taʼlim sifati singari boshqa turli sohalarga oʻz falsafiy qarashlari bilan taʼsir oʻtkazishga harakat qiladilar. Aslida har bir siyosiy islohotlar va revalutsiyalar malum bir falsafiy taʼlimotlarga asoslangan boʻladi va har birining oʻz *Nazaryotchi va Amalyotchi* faylasuflari boʻladi. Biz mavzuni toʻliqroq yoritish maqsadida ulardan faqatgina eng mashhurlari haqida toʻxtalib oʻtishni maʼqul topdik.

Qadimgi davr.

Sokrat (mil.avv.470-399) „Axloqiy falsafani hayot bilan bogʻlangan. Oʻz zamondoshlariga savol-javob orqali qanday yashash kerakligini oʻrgatgan.

Diogen Sinoplik (mil.avv.412-323) „Kiniklar maktabi asoschisi. Tabiiy va sodda hayot orqali falsafani amalda koʻrsatgan.”

Epikur (mil.avv.341-270) „ Baxt va rohatga erishish uchun oddiy hayot kechirishni targʻib qilgan.”

Oʻrta asrlar.

Al-Farobiy (873-951) „ Fozil odamlar shaxri” asari orqali jamiyat boshqaruvida axloq va adolatni amaliyotga tatbiq qilishni oʻrgatgan”

Ibn Rushd (1126-1198) „Falsafa va shariatni uygʻunlashtirib, amaliy hayotga ratsional yondashuvni ilgari surgan.”

Uygʻonish va Yangi davir.

Makiavelli (1469-1527) „ Hukumdor deb nomlangan asarida siyosiy hokimyatni saqlash uchun pragmatik (amaliy) yondashuvni koʻrsatgan.

Jon Lokk (1632-1704) „Lebiral demokiratya va inson huquqlarini amaliyotda qoʻllashni nazarda tutgan.

Jan Jak Russo (1712-1778) „Jamiyat shartnomasi nazaryasi orqali adolatli ijtimoiy tuzum yaratishga harakat qilgan.

Zamonaviy davr.

Karil Marks (1818-1883) „ Falsafani nazariyadan tashqariga olib chiqib, jamiyat tuzimini oʻzgartirish va sinfiy tengsizlikni tugatish uchun qoʻllagan. U oʻz

fikirlarini „Komunistik partiya manifesti” va „Kapital” asarlarida to‘liq bayon etgan.”

Jon Dyui (1859-1952) „ Paragmatizim asoschisi. Falsafani ta’lim va jamiyatda amaliyotga tadbiiq qilgan.

Mohandas Karamchand Maxadma Gandi (1869-1948) „ Zo’ravonliklarsiz kurash falsafasini siyosiy va ijtimoiy hayotda amaliy tarzda qo’llagan. Uning bu harakatlari tufayli Buyuk Biritanya Hindistonga mustaqillik berishga majbur bo’ladi.”

Bu faylasuflar nazariy bilimlarini real hayotga tadbiiq qilish orqali insoniyat dunyoqarashini o’zgartirishga intilgan. Bu tarixiy shaxslarni biz „Amalyotchi faylasuflar” deb atasak bu nomga ularning qilgan ishlari to‘liq mos keladi.

Endi esa irratsionalizatsiyaning ratsional faoliyatga aylanishi haqida tarixiy fakrlar keltirsak, Yevropa uyg’onish davrining mashhur namoyondasi Angliya qirolining birinchi vaziri Tomas Mor (1478-1535) tomonidan yozilgan asarlarda ideal davlat namunasi yaratilib u „*Utopiya*” deb atalgan. Utopiya „mavjud bo’lmagan yer” ma’nosini anglatib va bu asarda barcha teng huquqli va sinfiy tabaqalanmaydigan, barcha narsa hammaga teng taqsimlanadigan jamiyat qurish g’oyasi tasvirlanadi. Oradan 300 yildan ko’proq vaqt o’tgach ya’ni XIX asir o’rtalarida shunga o’xshash adolatli va sinflarga ajratilmaydigan jamiyat qurish g’oyasini Karl Marks va Fridrix Engles o’zlarining „*Komunistik partiya manifesti*” (1848-yil) va „*Kapital*” (1867-1894) asarlarida ilgari suradilar. Bu g’oyalar asosida V. I Lenin o’z siyosiy harakatlarida Markisizimning asosiy tamoyillarini, siyosiy harakatning asosiy lakamativi sifatida qabul qilgan. U Firidrix Engles va Karl Marksning nazariyalarini rivojlantirishga va ulardan amaliy, siyosiy faolyatda foydalanishga harakat qilgan. Lenin o’zining falsafiy asarlarida dialektik materializim va tarixiy materializimni himoya qilgan. Uning „*Materializim va Empiriokrititsizm*” (1909-yil) nomli asari falsafiy masalalarni yoritishga bag’ishlangan. Leninning falsafiy qarashlari asosan amaliy-siyosiy strategiyaga qaratilgan bo’lib, ular Sovet Ittifoqi va Komunistik harakatlarga kuchli ta’sir ko’rsatgan. Bu esa oxir-oqibatda Sovet Ittifoqi va davlat ichida yagona Komunistik partya hukumronligiga zamin yaratgan. 1924-yilda Lenin vafot etgach uning ishlarini Iosif Stalin davom ettiradi. Lekin uning shavqatsizlarcha olib borgan siyosati va xalqning ziyoli qatlamini qatag’on qilishi, jahon hamjamiyatida salbiy ta’surot qoldirib komunistik harakatlarga nisbatan qo’rquv va qarshilik munosabatlarini paydo bo’lishiga sababchi bo’ladi. Lekin etiborli tomoni shundaki hayoliy nazaryalar asosida real hayotda 16 asrda Tomas Mor tomonidan tasvirlangan ijtimoiy tabaqa sinflarisiz jamyat yani, utopik hayoliy davlatning sobiq SSR davlati misolida,” hayolotning-reallikka aylanganini“ ko’rishimiz mumkin.

Hozirgi zamonamizda ya’ni XXI asrda ham bu kabi Hayolotning haqiqatga aylanishi kabi hodisalar ko’plab yuz bermoqda.

Masalan: 2015-yilda Ukrainalik kino ijotkorlar tomonidan suratga olingan *Слуга Народа*- (Xalq Xizmatchisi) seriali bosh qahramoni Ukraina Prizedentiga aylangan tarix fani o’qituvchisi Vasiliy Galabarotko rolini ijro etgan komik-aktyor

V.Zeleniskiyning 2019-yilgi Prezidentlik saylovlarida uning kinodagi roldan qattiq ta'sirlangan Ukraina xalqining qo'llab-quvvatlashi bilan g'alaba qozonganligi va real hayotda Prezident bo'lganligi ham „Hayolotning-haqiqatga aylanishi mumkinligini“ to'liq isbotlaydi.

Bu maqolada keltirilgan tarixiy faktlar va mantiqiy taxlil qilish orqali insonlarga shuni anglatmoqmizki „Insoniyat aqil-zakovatining chegarasi yo'q, uning yuksak ong-tafakkuri shunchalik kuchli hattoki “hayolotni haqiqatga aylantirishga qodir!”

Foydalanilgan adabyotlar.

1. A.M. Ergashev „Falsafa“ Sharq nashiryoti Toshkent 2010-yil ¹
2. S.B.Shodmonova, M.M. Yo'ldoshev, „Tarixiy tadqiqotlarning Metodologiyasi va zamonaviy usullari“ Toshkent „O'zbekiston“ nashiryoti 2019. 56-59 betlar.²
3. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.³
4. O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti sirtqi bo'lim Tarix yo'nalishi 4-kurs talabasi O'rinov Umidjonning falsafiy qarashlari va creativ g'oyalari aks ettirilgan⁴ umidjon.urinov.02@mail.ru